



## BANK TIZIMI VA UNING BAJARADIGAN VAZIFALARI

Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li

Toshkent moliya instituti

Budjet hisobi va g'aznachilik fakulteti

3-kurs "BBI-90" guruh talabasi

Telefon: +998 33 626 01 09

e-mail: [yoqubboyevilhomjon240@gmail.com](mailto:yoqubboyevilhomjon240@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bank to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan va shuning bilan birga uning bajaradigan funksiyalari ya'ni bajaradigan vazifalari haqida qisqacha bayon qilingan. 1-jadvalda 01.01.2021-yil holatiga ko'ra barcha banklardagi daromad va xarajatlari to'g'risida malumotlar keltirilgan. Bu malumotlardan foydalangan holda keltirilgan 2-jadvalda 01.04.2021-yil va 01.04.2022-yil dagi ko'rsatkichlar ya'ni foizli marja, foizsiz daromad, soffoyda va bank tizimining daromadlilik ko'rsatkichlari solishtirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Bank, valyuta ayrboshlash, dollar, Angilya valyutasi, Chexiya valyutasi, kommunal xizmatlar uchun to'lovlar, kredit olish, omonat qo'yish, pul yuborish, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi, valyuta ayrboshlash, soliqlar, foizli marja, sof foyda, bank tizimi ko'rsatkichlari.

**Абстракт:** В данной статье представлена информация о банке, а также кратко описаны его функции, то есть задачи. По состоянию на 01.01.2021 предоставлена информация о доходах и расходах всех банков. Используя эту информацию, в таблице 2 сравниваются показатели на 01.04.2021 и 01.04.2022, т.е. процентная маржа, непроцентные доходы, чистая прибыль и показатели рентабельности банковской системы.

**Ключевые слова:** Банк, обмен валюты, доллар, валюта Ангильи, валюта Чехии, коммунальные услуги, получить кредит, депозит, отправить деньги, банковская система Республики Узбекистан, обмен валюты, налоги, процентная маржа, чистая прибыль, показатели банковской системы.

**Abstract:** This article provides information about the bank, and also briefly describes its functions, i.e., its tasks. As of 01.01.2021, information on income and expenses of all banks is provided. Using this information, Table 2 compares the indicators of 01.04.2021 and 01.04.2022, i.e. interest margin, non-interest income, net profit and profitability indicators of the banking system.

**Key words:** Bank, currency exchange, dollar, Anguilla currency, Czech currency, utility bills, get a loan, deposit, send money, banking system of the Republic of Uzbekistan, currency exchange, taxes, interest margin, net profit, bank system indicators.

Barchamizga ma'lumki "BANK" bu Bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to'lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag'larini jalb etish, o'z nomidan kreditlar berish bo'yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuuni amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs hisoblanadi. Sodda qilib aytganda Bank bu is'temolchilarga ya'ni insonlarga xizmat ko'rsatadigan joy hisoblanadi. Bizda savol tug'ilishi mumkin, Bank bizga qanday xizmat qiladi? Bank insonlarga quydagicha xizmat qiladi:



**Valyuta ayirboshlash** (masalan O‘zbekistonda aholi AQSH valyutasi bo‘lgan - dollarni, Chexiya valyutasi bo‘lgan - lerani, Angiliya valyutasi bo‘lgan - funt strlengni, yevro va boshqa davlat valyutalarini o‘zbek so‘miga ayrboshlashadi).

**To‘lovlarni amalga oshirish** (kommunal xizmatlar uchun masalan: elektr energiyasi, gaz, suv; davlat xizmatlari uchun masalan: talabalar kontraktlarini va soliqlarni to‘lash uchun va h.k).

**Omonat qo‘yish** (ma’lum bir mablag‘ni saqlash uchun foizga bankka qo‘yish).

**Kredit olish** (bank tomonidan uy, mashina yoki boshqa texnika vositalarini olishda puli bo‘lib to‘lash sharti bilan xarid qilish; naqd pul ko‘rinishida olish ham mumkin).

**Boshqa davlatlarga pul yuborish** (masalan Rassiyada biror tanishimiz bo‘lib u pulga ehtiyoj sezib qoladigan bo‘lsa bank uning hisob raqamiga pul yuborishda bizga xizmat qiladi).va boshqa ko‘plab xizmatlarni bajaradi.

Bankda ishlovchilar bankdan foydalanadigan insonlarga yaxshi muomilada bo‘lishlari zarur. Insonlarni hurmat qilishi va unga qanday yordam kerak bo‘lsa o‘zining imkoniyat darajasida yordam berishi kerak. Shuningdek bank xizmat ko‘rsatishi uchun davlat tomonidan tasdiqlangan litsenziyaga ega bo‘lishi zarur.

**O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi** - O‘zbekiston Respublikasi moliya va pul-kredit tizimining uzviy qismi hisoblanadi. Respublikamizda bank tizimi ikki pog‘onali bank tizimidan iborat bo‘lib, o‘z ichiga Markaziy bank va tijorat banklarini oladi. Markaziy bankning tijorat banklari bilan hamda tijorat banklarining o‘z mijozlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari, jumladan «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi hamda «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunlarida belgilangan. «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunining 20-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida banklar bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir qarorlar qabul qilishda mustaqildirlar<sup>1</sup>.

Markaziy bank o‘z oldiga qo‘yilgan vazifaga erishish uchun banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va kredit byurolari faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi, banklar uchun majburiy bo‘lgan iqtisodiy normativlarni belgilaydi. Markaziy bank vakolatlarining to‘liq ro‘yxati «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunida aks ettirilgan. Tijorat banklari «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq tijorat tashkilotlari hisoblanib, ularning faoliyati daromad olishga qaratilgan.

**01.01.2021 yil holatiga ko‘ra ma’lumotlar**

Aktivlar, mlrd. so‘m

56511,3



Kredit portfeli, mld. so‘m	43147,8
sh.j., qisqa muddatli kreditlar, mld. so‘m	5582,1
sh.j., uzoq muddatli kreditlar, mld. so‘m	37565,7
Depozitlar, mld. so‘m	12583,7
sh.j. Aholi omonatlari, mld. so‘m	3318,5
Kapital, mld. so‘m	7700,9
sh.j. Ustav kapitali, mld. so‘m	4 634,50
24/7 punktlar soni (dona)	97
Bank xizmatlari markazi (dona)	46
Valyuta ayirboshlash shaxobchalari (dona)	48
Plastik kartalar soni (dona)	1 534 539
Terminallar soni (dona)	33 296

1-jadval. 01.01.2021 yil holatiga ko‘ra ma’lumotlar

	mlrd. so‘m
<b>Bank tizimi daromad va xarajatlari</b>	<b>01.04. 2021</b>
Foizli daromadlar	10 713
Foizli xarajatlar	6 810
<b>Foizli marja</b>	<b>3 902</b>
Foizsiz daromadlar	5 445
Foizsiz xarajatlar	1 054
Operatsion xarajatlar	2 070
<b>Foizsiz daromad (zarar)</b>	<b>2 321</b>
Kredit va lizing bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash	4 280
Boshqa aktivlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash	114
Soliq to‘langunga qadar sof foyda (zarar)	1 829
Foyda solig‘ini to‘lash xarajatlari	356
<b>Sof foyda (zarar)</b>	<b>1 473</b>
<b>Bank tizimi daromadlik ko‘rsatkichlari</b>	
Soliq to‘langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)	2,0
	2,3



Soliq to‘langunga qadar sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)	9,9	10,6
Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati	4,2	4,9
Kreditlar bo‘yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo‘yilmalariga nisbati	5,5	6,5
Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlargaliga nisbati	5,0	5,9
Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati	4,2	5,0

2-jadval. 01.04.2021 va 01.04.2022- yillar holatiga ko‘ra ma’lumotlar

Hozirgi kunda barcha insonlar uchun eng kerakli narsa bu vaqtadir. Bu vaqtini behuda narsalarga ya’ni bankda soatlab navbatda turishga, navbat kelguncha pul tugaydi yoki ish vaqtini tugab qoladi hech bo‘lmaganda abet vaqtini bo‘lib qoladi. Bundan ko‘rinib turibdiki biz ertaga yana bankka kelib navbatda turishimiz kerak bo‘ladi ishimiz bitishi uchun. Biz o‘scha navbatni qisqartirishimiz iloji bo‘lsa navbatlarni umuman yo‘qotishimiz lozim. Bugungi kunda navbatlarni qisqartirish bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Misol qilib oladigan bo‘lsak bankamatlar tashkil qilinmoqda. Bu bankamatlar plastik kartadagi pulni naqd pul qilish, plastik kartaga masofadan turib pul jo‘natish, plastik karta kodini o‘zgartirish, sms xabarnomani yoqish, telefon raqamimiz hisobini to‘ldirish, kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarini amalga oshirish kabi ko‘plab vazifalarni bajaradi. Navbatni qisqartirish yoki yo‘qotishimiz uchun ushbu bankomatlarga quydagilarni qo’shishimiz lozim.

**Valyuta ayriboshlash** (o‘zbek so‘mini chet el valyutasiga ayriboshlash yoki teskarisi chet el valyutasini o‘zbek so‘miga alishtirish).

**Davlat muassasalari uchun to‘lovlarini amalga oshirish** (masalan oliy ta’lim muassasalari uchun kontrakt to‘lash, talabalar turar joyi uchun to‘lovlarini amalga oshirish kabi funksiyalarini qo‘sish kerak. Chunki talabalarning ko‘p vaqtini navbatda qolish bilan o‘tmoqda. Bu esa talabalar vaqtini o‘g‘irlamoqda).

**Soliqlarni to‘lash** (uy-joy solig‘i, yer-mulk solig‘i, daromad solig‘i va hokazo).

Chunki aksariyat aholi ushbu xizmatlar uchun bankka borishadi va qarabsizki uzundan uzun navbatlar paydo bo‘ladi.

Hozirgi kunda shahar joylarda bankamatlar mavjud ammo qishloq joylarda yashovchi aholi plastigini naqd pul qilish uchun shahar markaziga kelishga majbur bo‘lmoqda. Chunki qishloqda yashovchi aholining aksariyatining oyligi yoki pensiyasi plastik ko‘rinishda tushadi. Faqat shahar joylarga emas qishloqlarda ham



bankamatlarni ko‘paytirish kerak. Bu bilan banklarda ishlar osonlashadi eng asosiysi aholining vaqtin tejaladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda bank va uning texnologiyalari bizning ishimizni ancha osonlashtirib bermoqda. Oldingi davrlarda chet eldan pul jo‘natilsa faqat bankdan olsa bo’lar edi. Hozirgi kunda esa chet eldan O’zbekistonda hududida yashayotgan va bank kartasi mavjud bo’lsa shuni o’zi kifoyadir. Chet eldan kartaga pulni bemalol jo‘natishi mumkin bunda fuqarolarimiz pulni olish uchun bankka borishlari ham shart emas. Bank xizmatlaridan hozirgi kunda deyarli barcha fuqarolarimiz foydalanib kelishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi hamda «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunlarida belgilangan. «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonuning 20-moddasi.
2. Abduraximova Dilora Karimovna. (2023). THE NEED TO INTRODUCE FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE BANKING SERVICES MARKET. Academia Science Repository, 4(05), 54–62. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/439>
3. Karimovna, A. D. (2023). ISSUES OF WIDE IMPLEMENTATION OF FINANCIAL TECHNOLOGIES IN THE GLOBAL FINANCIAL MARKET. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 20, 67-76.
4. Sanober, S., Aldawsari, M., Karimovna, A. D., & Ofori, I. (2022). Research Article Blockchain Integrated with Principal Component Analysis: A Solution to Smart Security against Cyber-Attacks.
5. Karimovna, A. D. (2023). BANK INNOVATIONS AND THEIR IMPACT ON THE ECONOMY. Open Access Repository, 10(11), 44-50.
6. «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni
7. <https://cbu.uz>